

## TUPROQLARINING MELIORATIV HOLATI

(Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani tuproqlari misolida)

**D.Yu.Maxkamova, J.J. Abdukarimov**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro viloyatida Qorovulbozor tumani iqlimi, yer osti suvlar tarkibi, geomorfologik tuzilishi hamda sug'oriladigan sur-qo'ngir tuproqlarining mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi va miqdori keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Tuproq, yer osti suvi, mexanik tarkib, sho'rlanish.

Buxoro viloyati o'zining geografik joylashuviga ko'ra, Turon subtropik iqlim mintakasiniig Markaziy Osiyo quruq iqlim zonasiga kirib, yarim cho'l mintaqasiga mansub o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Xududning umumiy iqlim sharoiti cho'l va chala cho'l iqlimi ta'sirida shakllanadi. Iqlimning umumiy xususiyatlari tekislik va cho'l oldi xududlarida uning keskin kontinental quruqligi, janubiy g'arbda cho'l va chala cho'l yerlarda xavo xaroratinnng ko'tarilishi, yog'in miqdorining kamayib borishi, quyosh radiatsiyasi, kunlik, oylik, yillik va fasllarda haroratning katta oraliqda tebranib turishi va atmosfera yog'inlarining yil davomida notekis taqsimlanishida o'z aksini topadi. Cho'l qismida ayozsiz davrning davomiyligi 212-218 kunni tashkil kiladi. Effektiv faol harorat yig'indisi 4000-4400°C, effektiv foydali harorat yig'indisi esa 2100-2300°C, ko'p yillik o'rtacha xarorat +17°C ni tashkil etadi.


Viloyat bo'yicha harorat dinamikasi oylar bo'yicha turlicha bo'lib, eng past harorat ma'lumki, dekabr, yanvar, fevral oylariga, eng yuqori harorat esa iyun, iyul, avgust oylariga to'g'ri keladi. Ma'lumki, tuproq sho'rlanishi va meliorativ holati o'zgarishida harorat orasidagi katta farq faollashtiruvchi omil sifatida ta'sir qiladi. Bunda tuproqdagi kapillyarlar orqali tuproqdagi suvning xarakati faollashadi, shuningdek, yer osti sizot suvlarining ham ko'tarilib-tushib turishi ta'sir qiladi. Bundan tashqari, tuproqlarning sho'rlanish holatiga yog'in miqdorining ham ta'siri seziladi.

Yer osti suvlarining asosiy manbaini sug'orish tarmoqlari va sug'oriladigan

dalalardan singadigan suvlar tashkil qiladi. Yer osti suvlari 1,5-2,5 m. chuqurlikda joylashgan. Qish oylarida sho‘r yuvish yer osti suvlari sathini birdan ko‘tarilishiga olib keladi. Kuzda uning sathi bir oz pasayadi.

Xudud murakkab geologik, geomorfologik-litologik, tuproq iqlim sharoitlari regionda o‘ta murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat yer usti va yer osti suvlari rejimi hamda balansi ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topgan. Xududda gidrografik tarmoqlar nihoyatda notekis taqsimlangan. Grunt suvlarining mineralizatsiya darajasi turli qismlarida turlicha ko‘rsatkichlarda, shimoliy tekisliklarida 1-2 g/l atrofida kuzatilsa, xududning o‘rta qismlarida 2-3 g/l, quyi pastkam yerlarda 3-5 g/l va undan ortiq miqdorni tashkil etadi. Jumladan, xudud yerlarida grunt suvlarining o‘rtacha minerallashtirgan darajasi 1,5-2 g/l ko‘rsatkichiga teng.

**Tadqiqot xududida asosan** mexanik tarkibiga ko‘ra qumloq, yengil va o‘rta qumoq mexanik tarkibga ega. Bu tuproqlar tabiiy sharoitda ko‘pincha yuqori qismi sho‘rlanmagan, ammo pastki qatlamlar sho‘rxok. Xudud tuproqlarining sho‘rlanishi va ikkilamchi sho‘rlanishiga ta‘sir etuvchi omillar haroratning yuqori bo‘lishi, muntazam sug‘orish ishlari olib borilishi va yer osti grunt suvlarining xarakati xisoblanadi.



**Tadqiqot xududida** jami 15280 gektar sug'oriladigan tuproqlar bo'lib, shundan 11308,6 gektari (74,0%) turli darajada sho'rlangan, sho'rlanish darajasi bo'yicha 7631,7 gektari (49,95%) kuchsiz, 2163,0 gektari (14,16%) o'rtacha, 337,3 gektari (2,21%) kuchli va 1176,6 gektari (7,7%) juda kuchli darajada sho'rlangan tuproqlar hisoblanadi (1-rasm).

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, xudud sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu tuproqlardan ilmiy asoslangan holda tuproqning xossalarini kompleks holda o'rganish, iqlim omillarini inobatga olib, meliorativ tadbirlar o'z vaqtida tizimli olib borish, ularning meliorativ holatini yaxshilash mumkin. Tuproqlarning sho'rlanish tuproq degradatsiyasidagi eng katta muammosi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Абдурашидов М.Ё., Махкамова Д.Ю. Геологическое строение, геоморфология Голодностепской равнины. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал ЯНВАРЬ - 2023 год ЧАСТЬ – 5. Выпуск журнала № 12. - С.141-143.

2. Atoev B., Kaypnazorov J., Egamberdieva M., Makhmadiyev S., Karimov M., Makhkamova D. Technology of nutriating winter wheat varieties in variety-soil-fertilizer system. E3S Web of Conferences 244, 02040 (2021).

3. Gafurova L.A., Madrimov R.M., Razakov A.M., Nabiyeva G.M., Makhkamova D.Yu., Matkarimov T. R. Evolution, Transformation And Biological Activity Of Degraded Soils. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 28, No. 14, (2019), pp. 88-99.

4. Maxkamova D.Yu., Abdusalilova O.X. Cho'l xududi tuproqlarning sho'rlanishi, sizot suvlari va sifat tarkibi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5 (75), – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56> ISSN 2091-573 X. –B.129-132.

5. Maxkamova D.Yu., Ruzimatova S.E., Karimov B.S. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligiga ta'sir etuvchi ayrim omillar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Facto February 2022. -P.488-494.

6. Ruzmetov M.I., Jabborov O.A., Qo'ziyev R.Q. va boshq. O'zbekiston sug'oriladigan yerlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash. Toshkent. Universitet nashriyoti, 2018. –B.45-51.

